


**Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi  
axborot-bibliografiya xizmati**



**18-aprel – Xalqaro yodgorliklarni va tarixiy  
joylarni asrash kuniga “Buyuk tariximizni  
asrash barchamizning burchimizdir ” nomli  
kitobxonlarga bibliografik tavsiyanoma.**

# Muqaddima

Bu kun 1983-yilda YUNESKO Assambleyasi tomonidan jahon madaniy merosini muhofaza qilish va asrab-avaylashga jamoatchilik e'tiborini qaratish maqsadida ta'sis etilgan. Madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish har qanday davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy merosni asrab-avaylash nafaqat tarixni saqlab qolish, balki butun dunyodan minglab sayyoohlarni jalb etadigan noyob turizmni shakllantirish imkonini beradi.





## Asrlar yukini ko‘tarib turgan binolar.

Har yili ushbu bayramni qo‘llab-quvvatlash va turli tadbirlarni o‘tkazish va butun dunyo bo‘ylab madaniy merosni targ‘ib qilish uchun mavzu tanlanadi. 2012-yilda tanlangan mavzu “Jahon merosi” edi. “Jahon merosi” konvensiyasi esa 1972-yilda amaliyatga tatbiq etilgan. 2021-yilda bu kunning 40 yilligi munosabati bilan tanlangan mavzu “Murakkab o‘tmishlar, xilma-xil kelajak”. Ushbu xalqaro kunning maqsadi insoniyatning madaniy merosini turli shakllarda o‘rganish va mahalliy jamoalarni madaniy merosning ahamiyatini anglashga undashdir. Bu borada butun dunyodagi tarixiy obidalarni asrab-avaylash va ularni qayta ta’mirlashda YuNESKO xalqaro tashkilotining roli salmoqlidir. Mamlakatimizda ham YuNESKO rahnamoligida bir qancha restavratsiya ishlari amalga oshirilgan. Bularga misol qilib qadimiylar va hamisha navqiron Samarqand shahridagi Afrosiyob tepaligidagi qazishma ishlarini, shuningdek, Shahrisabzdagi Amir Temur barpo ettirgan Oqsaroyning yo‘laklaridagi koshinlarda amalga oshirilgan qayta ta’mirlash ishlarini keltirishimiz mumkin.



Qadimiy va boy tariximizni o‘rganish, keng targ‘ib etish yoshlarda qanday buyuk zotlarning, dunyo ilm-fani va madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shtgan ulug‘ olim va mutafakkirlarning avlodi, betakror meros vorisi ekanidan faxrlanish tuyg‘usini kuchaytirish, ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. O‘tgan asrning o‘rtalariga kelib jahon jamoatchiligi nodir va betakror yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni umumbashariyat mulki sifatida kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga e’tibor qarata boshladи. YuNESKO 1972 yil Parijda bo‘lib o‘tgan simpoziumda Madaniy va tabiiy meros yodgorliklarini muhofazaga olish haqida rezolyusiya qabul qildi. 1983 yilda BMT tomonidan 18 aprel – Xalqaro yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash kuni, deb belgilandi. 2003 yilda YuNESKO nomoddiy madaniy meroslarni muhofazasiga olish haqida qaror chiqardi.

Prezident rahnamoligida milliy qadriyatlarimizni, yurtimizdagи tarixiy obida va madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash, o‘rganish va muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotir. Mamlakatimiz, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ushbu hujjat asosida qadimiy yodgorliklarni o‘rganish, qayta tiklash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Kot-Firqal’a, Tuproqqal’a, Aqchaxonqal’a, Ayozqal’a, Chilpiq, Mizdaxkan singari madaniy yodgorliklar o‘rganilib, xalqaro turizm yo‘nalishiga kiritildi. Avstraliya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi bilan hamkorlikda 1995 yildan buyon Beruniy tumanidagi Aqchaxonqal’a yodgorligida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida Toshxirmon vohasidagi bu qal’a devorlari qalin paxsa va katta g‘ishtlardan qurilgani, har bir g‘ishtga o‘sha davr urug‘lari tamg‘asi bosilgani ma’lum bo‘ldi. Umumiyl maydoni 50 hektar bo‘lgan qal’a yodgorligi bir-birining ichiga joylashgan tashqi va ichki qal’alardan iborat. To‘plangan arxeologik materiallar bu yerda o‘z davrida xalq hunarmandligining ko‘pgina turlari rivojlanganini ko‘rsatmoqda.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limida saqlanayotgan bu materiallar ustida laboratoriya-tekshiruv ishlari olib borilayotir. Qal’adan topilgan rangtasvir san’ati namunalari Avstraliya, Fransiya, Lixtenshteyn va irlandiyalik olim va mutaxassislar tomonidan ham o‘rganilmoqda. Laboratoriya-tahlil ishlari nihoyasiga yetkazilgach, xalqimizning qadimiy tarixi, amaliy san’ati namunalari va boy madaniy merosini targ‘ib etish maqsadida rivojlangan davlatlar muzeylarida

ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Aqchaxonqal’ a yodgorligida olib borilgan ilmiy tekshiruvlar va qazish ishlari natijasida uning atrofida qadimiy Toshxirmon, Cho‘pon, Sheytlik, To‘proqqal’ a-3, Qoratepa-2,3,4, Ko‘panqal’ a, Jigarman kabi o‘nlab arxeologik yodgorliklar topildi.

Mamlakatimizda milliy davlatchiligimiz tarixini o‘zida aks ettirgan ushbu yodgorliklarni, tarixiy va madaniy obidalarni o‘rganish, asrab-avaylash va keng targ‘ib etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samarasi yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlardan qalbida Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat, ajdoddlardan iftixon qilish tuyg‘usini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

**G‘ayraddin XO‘JANIYOV,  
O‘zbekiston Qahramoni, arxeolog olim.**

### **O‘zbekiston epigrafika yodgorliklarining miqdori va noyobligi bo‘yicha Markaziy Osiyoda shubhasiz yetakchi mamlakat bo‘lib qolmoqda...**

SHAVX UMAR VALIV BOG‘ISTON MAQBARASI - O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI, MARKAZIY OSIVO XALQLARI UCHUN HAM TABARRUK ZIVORATGOH SIFATIDA MASHHURDIR.

**#BILASIZMI** SHAVX UMAR VALIV MAJMUSI YOKI UNING BOSHQA NOMI «MOZORI SHAXMAR BUVA ZIVORATGOH» JOYLASHGAN BO‘LIB, U MOZORSOV VA PSKOM DARYOLARI KESISHGAN JOYDA, QISHLOQNING G‘ARBIY QISMIDA JOYLASHGAN.



MAQBARASI TABARRUK ARCHA DARAXTI OSTIDAN JOY OLGAN VA MAHALLIY AHOLINING RIVOVATIGA KO‘RA, BOG‘DAGI DARAXTLARNI XOJA (KO‘JA) AHRORNING O‘ZI OTQAZGAN VA UNING YAXSHI NIYATLARI TIMSOLI HISOBLANADI.

SHU BOIS, BUGUNQA QADAR MAHALLIY AHLI QADIMIV DARAXTLARNI BOQIV HAYOT VA SERHOSILLIK TIMSOLI SIFATIDA ARDOQLASHADI.

MAQBARANING YONGINASIDA NASX XATLI ARAB TILIDIAGI BITIK TUSHIRILGAN JIGARRANG QAYROQTOSH BOR. UNING BU YERGA QANDAY KELIB QOLGANLIGI MA‘LUM EMAS. TOSHD A 1186/1773 YIL SANASI VA MARHUM AZIZXOJANING ISMI KO‘RSATILGAN.



**TARJIMASI:** MEHRIBON VA RAHMLI ALLOH NOMI BILAN (BOSHLAYMAN). GUNOHHLARI KO‘P, BECHORA, ARZIMAS VA ZAIF ... BANDANING QO‘LI BILAN [YOZILD], AZIZXOJA. 1186/1773 – 1774 [YIL].




PAYG‘AMBAR (S. A. V.) AVTIDLAR:  
«QO‘LI VA TILI BILAN O‘ZGALARGA OZOR BERMANGAN KISHI MUSULMONDIR». RASULULLOH ROST SO‘ZLADI.



**Shayx Umar Valiy bog'iston maqbarasi - O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo xalqlari uchun ham tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir.**

#bilasizmi Shayx Umar Valiy majmuasi yoki uning boshqa nomi «Mozori Shaxmar buva ziyoratgohi» joylashgan bo'lib, u Mozorsoy va Pskom daryolari kesishgan joyda, qishloqning g'arbiy qismida joylashgan.

✓ Shayx Umar Bog'istoniyning biron-bir asar yoki kitob bitgani haqida ma'lumot yo'q. Lekin u zotning hikmatli so'zлari yozma va og'zaki holda saqlanib qolgan.Qadimiy bog'da ikki muqaddas dargoh mavjud: Shayx Umar Valiy mozori va Shayx Dovud mozori. Binoning kirish qismida qayroq toshli qabrtosh o'rnatilgan, unda arab tilidagi yozuvlar bor.



"Ali ziyoratgohi" masjidi - bu hududdagi ko'hna ziyoratgoh hisoblanadi...

Ushbu ziyoratgoh Parkent tumani Kumushkon qishlog'idagi Chashma mahallasining eng yuqori qismida joylashgan. ✨ Bu masjid hududdagi ko'hna ziyoratgoh bo'lib, 1982-yilda 1 xonaqoh va 1 ayvon barpo etilgan. !Mazkur ziyoratgoh 2010-yilda mahalliy ustalar tomonidan, tasdiqlangan loyiha asosida qaytadan ta'mirlangan. ✓ Hozirda ziyoratgohda 3 xonaqoh, 1 ayvon mavjud. Ziyoratgohda qadimiy chinor bo'lib, uning atrofida ziyoratchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan.

BUXORODAGI MASJIDI KALON TARIXI HAQIDA BILASIZ-MI...?!




**Buxorodagi Masjidi Kalon tarixi haqida ma'lumotlar:**

- ✓ Qutayba ibn Muslim Buxoroni zabit etgandan so'ng hijriy to'qson to'rtinchili yili (milodiy 712–713 yillar) Buxoro arki ichidagi majusiylar butxonasini masjidga aylantiradi. Shahar aholisi har juma kuni shu yerga yig'iladi. Qutayba har juma kuni jarchi qo'yib, odamlarni namozga chaqirtirganini Abu Bakr Muhammad Narshaxiy "Buxoro tarixi" kitobida yozib qoldirgan.
- Hijriy bir yuz ellik to'rtinchili yili buxoroliklar ark va shahriston bozori o'rtaida jome bino qiladilar.



Afsonaga ko'ra, Nuh payg'ambarning o'g'illaridan biri tomonidan qazilgan quduq atrofida o'sgan kichik shahar, Xorazm viloyatining markazi. Xivada juda ko'p ajoyib ziyoratgohlar va binolar mavjud. Eski shahar – Ichon qal'a – Markaziy Osiyoda YUNESKO himoyasiga olingan birinchi ob'ekt edi.


NIMA UCHUN SAMARQANDDAGI SHERDOR MADRASASI PESHTOQIDA QOPLONLAR TASVIRLANGAN...



SAMARQANDDAGI SHERDOR MADRASASI PESHTOQIDA  
TASVIRLANGAN QOPLONLARNING MA'NOE:

- KIYIK OVLAYOTGAN QOPLONLARNING TASVIRI, ILMU  
TOLIBLAR BILIMGA INTILISHLARI ZARURLIGINI VA SHERLAR  
O'LJASINI QUVIB ULARNI YEGANLARIDEK, DONOLIKNI  
O'ZLASHTIRISHLARI ZARURLIGI LOZIMLIGINI ANGLATADI...

SAMARQANDDAGI SHERDOR MADRASASI HAQIDA 4 TA  
FAKT BILAN MATNIDA TANISHIB CHIQISHINGIZ MUMKIN.



## Nima uchun Samarqanddagi Sherdor madrasasi peshtoqida qoplonlar tasvirlangan...!?

✓ Kiyik ovlayotgan qoplonlarning tasviri, ilmu toliblar bilimga intilishlari zarurligini va sherlar o'ljasini quvib ularni yeganlaridek, donolikni o'zlashtirishlari zarurligi lozimligini anglatadi...

### Madrasa haqida 4 ta fakt:

1-Qariyb uch asr davomida Sherdor musulmonlar orasida eng mashhur ta'lim muassasasi hisoblangan.

2-Madrasa peshtoqida tasvirlangan jarayon vaqt o'tishi bilan O'zbekistonning milliy ramzlaridan biriga aylandi.

3-Bir necha asrlar davomida madrasa mashhur islomiy ta'lim muassasasi bo'lib, uning hujralarida taniqli faylasuflar va ilohiyotshunoslar tahlil olgan.

4-Madrasa 1619-1636 yillarda Ulug'bekning demontaj qilingan xonaqohi o'rnidagi Ashtarkoniy Yalanto'shibiy Bahodirning buyrug'i bilan qurilgan.



📍 O'ZBEKİSTONDA JOYLASHGAN TARİXİY OBİDALARDAGİ BITİKLARNI O'RĞANİSH HOZİRGA QADAR TO'LALIGİCHA AMALÇA OSHIRILMAGAN...

YUZLAB YILLAR DAVOMIDA KO'PLAB MUTAXASSİSLAR USHBU BITİKLARNI TADQIQ QILISHGA URINIB KELMOQDALAR, MAHORATLI USTALAR TOMONIDAN BITILGAN KO'P ASRLIK MONOGRAMMLAR VA BOSHQА MATNLARNING TO'G'RI TALQINI BORASIDA YUZAGA KELGAN İLMİY MUNOZARALAR ESA BUGUN HAM DAVOM ETMOQDA. O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI DAVLAT MUSTAQILLİĞİGA ERİSHGACH, YODGORLIKLARNING TARİXDAGI MUNOSIB O'RNI QAYTARILDI VA İLK MARTA QADIMİY BITİKLARNI TADQIQ ETİSH, ULARNI O'QISH VA MA'NOLARINI ANIQLASHTIRISH BO'YİCHA KENG KO'LAMLI ISHLAR YO'LGA QO'YILDI.

Yuzlab yillar davomida ko'plab mutaxassislar ushbu bitiklarni tadqiq qilishga urinib kelmoqdalar, mahoratli ustalar tomonidan bitilgan ko'p asrlik monogrammlar va boshqa matnlarning to'g'ri talqini borasida yuzaga kelgan ilmiy munozaralar esa bugun ham davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, yodgorliklarning tarixdagi munosib o'rni qaytarildi va ilk marta qadimiy bitiklarni tadqiq etish, ularni o'qish va ma'nolarini aniqlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yildi.✓ Taqdim qilinayotgan kitob-albomlar turkumi loyihaning shu yo'nalishdagi bir necha yillik ish faoliyatining birinchi bosqich natijalarini o'zida mujassam etgan.

Tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, adabiyot, tasviriy va amaliy san'at asarlari, arxeologik topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan majmualar, muhim ilmiy tadqiqotlarni yodga olish asrashimiz har birimizning burchimiz ekanligini unutmasligimiz kerak.

**Tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasi** – insoniyat madaniy merosini saqlash va muhofaza qilish yo'lidagi xalqaro, davlat va jamoatchilik tadbirleri tizimi. Tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, adabiyot, tasviriy va amaliy san'at asarlari, arxeologik topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan majmualar, muhim ilmiy tadqiqotlar muxrfaza etiladi. T. va m.yo.m., asosan, Uyg'onish davridan boshlangan. Buyuk fransuz inqilobi davrida shaxsi y kolleksiyalar natsionalizatsiya qilingan (Luwr muzeyinm tashkil etish to'g'risidagi dekret, 1793). 19—20-asrboshlarida ko'pgina Yevropa davlatlarida tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat muhofazasiga olingan. Ikkinci jahon urushidan so'ng YUNESKO tashabbusi bilan 1954-yilda (Gaaga konferensiyasi) Xalqaro konvensiya va „Qurolli konfliktlar ro'y berganda madaniyat boyliklarini himoya qilish to'g'risida“ bayonnomma imzolangan. T. va m.yo.m. bilan Xalqaro muzeylar kengashi (1946), Madaniyat boyliklarini muhofaza etish



va restavratsiya qilish xalqaro tadqiqot markazi (1959), Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza etish bo'yicha xalqaro kengash (1965) shug'ullanadi.

O'zbekistonda yodgorliklarni muhofaza etish, asosan, 20-asrning 20y.laridan boshlangan. 1920-yil Maorif xalq komissarligi qoshida muzeylar, san'at asarlari va qad. yodgorliklarni muhofaza qilish Turkiston qo'mitasi – Turkkomstaris tuzilgan, keyinchalik Sredazkomstaris bu ish bilan shug'ullangan. Hozir O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi huzuridagi Madaniy meros ob'yeqtalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiyishlab chiqarish. Bosh boshqarmasi shug'ullanmoqda. Respublika hududida va chet mamlakatlarda saqlanayotgan noyob qo'lyozmalar, madaniy, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi namunalari, san'at va badiiy asarlar, teatr musiqa, qad. davlatchilik tarixiga oid hujjatlar, qad. cholg'u asboblarini yig'ish, saqlash va boshqa bilan shug'ullanish maqsadida „Oltin meros“ xalqaro xayriya jamg'armasi tuzilgan (1999-yil 12 oktabr).

### DIQQATGA SAZOVOR JOYLAR

O'zbekiston qadimiy tarix va boy madaniyatga ega davlatdir. Boy me'moriy meros, son-sanoqsiz tarixiy obidalar, sharqona bozorlar va zamonaviy savdo markazlari, noyob qo'riqxonalar va tabiiy bog'lar, sanatoriylar va dam olish maskanlari – mamlakatimizda har kim o'zi uchun nimadir ko'rishi va qayerda dam olishi mumkin.



O'zbekiston me'morchiligi o'ziga xos va rang-barangdir. Hozirgi globallashuv sharoitiga qaramay, mamlakatimizda har yili butun dunyodan millionlab sayyoohlar tashrif buyuradigan eng qadimiy me'moriy meros

obidalari saqlanib qolgan. Mashhur me'moriy ansambllar Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Shahrisabz, Qo'qon va boshqa shaharlarda joylashgan. Jahonga mashhur me'morchilik durdonalaridan Poy-Kalon, Islomxo'ja, Lyabi-Xauz, Registon, Sulton-Saodat, Jomiy, Suzuk-Ota me'moriy ansambllari, Paxlavon Mahmud majmuasi va boshqa ko'plab me'morchilik ansambllari bor.



Bularning barchasi O'zbekiston hududining o'rta asrlarda Buyuk Ipak yo'lining markaziy bo'g'ini bo'lganligi, shuningdek, 14—16-asrlar va temuriylar davrida islom me'morchiligining gullab-yashnashi bilan bog'liq. 16-asrda Shayboniylar. Ulug'vor madrasa va minoralar, muqaddas maqbaralar, muhtasham ansambl va yodgorlik majmualari, sirli nekropol va manzilgohlar, qal'alar va saroylar – ko'plab me'moriy yodgorliklar har bir sayyohga mamlakatning istalgan nuqtasiga sayohat qilish uchun o'ziga xos yo'nalish tanlash imkonini beradi. O'zbekiston ulkan arxeologik merosga ega. Uning hududida ko'plab qal'alar va aholi punktlari mavjud bo'lib, ularning eng qadimiylari ellistik davrga tegishli.

O'zbekistonning madaniy arxeologik yodgorliklari:

- Qadimiy Kampirtepa manzilgohi, olimlar uni Makedoniyaning yo'qolgan shahri - afsonaviy Aleksandriya Oksiana deb atashgan;
- Samarqand chekkasidagi qadimiy Afrasiyob manzilgohi;
- Qadimgi Xorazm qal'asi - Jompik-qal'a va boshqalar.

O'zbekistonda islom madaniyatining markazi sifatida diniy arboblar va tarixiy shaxslarga sig'inish maqbaralari ko'p. Maqbara madaniyat, fan, din

arboblari, tarixda o‘zini ko‘rsatgan taniqli shaxs dafn etilgan joy. Yurtimizda eng mashhur maqbaralar: Temuriylar - Gur-amir maqbarasi, Samarqanddagi Xo‘ja Doniyor maqbarasi, Buxorodagi yetti avliyo (7 bayram) qabri, xalq shoiri va qahramon Paxlavon Mahmud maqbarasi. Xivada va boshqa ko'plab.



O‘zbekistonning muhtasham me’morchiligi tarixiy binolar, jumladan, muqaddas maqbaralar, masjidlar, diniy saroy majmualari va madrasalar bilan ifodalanadi. Madrasa - mekteb (boshlang‘ich maktab) dan keyin kiradigan muslimon ta’lim muassasasi. O‘rta asrlarda madrasa islom dinini o‘rgatuvchi yagona oliv o‘quv yurti bo‘lib, uni taniqli olimlar va din arboblari tugatgan. O‘zbekistonda eng mashhur madrasalar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda joylashgan. Diniy binolardan Ulug‘bek, Sherdor, Tillaqori, Ko‘keldosh madrasasi, Abdulazizzon madrasasi, Muhammad Aminxon madrasasi va boshqalar bor.



Masjidlar musulmonlar uchun jamoaviy ibodat joylaridir. O‘zbekistonda ularning soni 2 mingdan ortiq. Ularning aksariyati har yili minglab sayyoohlarni o‘ziga tortadigan me’moriy meros obidalaridir. O‘zbekiston hududidagi eng qadimiy masjidlardan biri Buxorodagi Mag‘oqi Attori va Navoiy viloyatidagi Degaron masjididir. Qoidaga ko‘ra, yirik masjidlarga tutash hududda an’anaviy bezaklar bilan bezatilgan minoralar, xonaqohlar va boshqa muhim binolar qad rostlagan.

O‘zbekiston nafaqat tarixiy arxitektura yodgorliklariga ekskursiyalarni, balki oila va do‘stlar bilan qiziqarli hordiq chiqarish joylarini ham taklif qilishi mumkin. Mavzu bo'yicha bog'lar va bog'lar, akvaparklar va suzish havzalari, bouling va golf klublari, karaoke va barlar - bu erda har qanday did uchun dam olish uchun joy tanlashingiz mumkin.

### Foydalanilgan manbalar:

**Internet ma`lumotlardan foydalanildi.**

Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Бухоро/ Ф.Абдуҳолиқов, Э. Ртвеладзе, А.Раззоқов, Б.бобожонов ва бошқ//<< Uzbekistan Today >> АА, 2016.-560 б.

Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Самарқанд, Шоҳи Зинда// Ф.Абдуҳолиқов, Э. Ртвеладзе, А.Раззоқов, К.Рахимов ва бошқ//Тошкент<< Uzbekistan Today >> АА, 2015.-380 б.

Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Қашқадарё, Шаҳрисабз/ Ф.Абдуҳолиқов, Э. Ртвеладзе, А.Раззоқов, Б.бобожонов ва бошқ//<< Uzbekistan Today >> АА, 2016.-344 б.

Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Хива, Иchan қаъса// Ф.Абдуҳолиқов, Э. Ртвеладзе, А.Раззоқов, К.Рахимов ва бошқ//Тошкент<< Uzbekistan Today >> АА, 2015.-352 б.

<https://daryo.uz/2021/04/18/asrlar-yukini-kotarib-turgan-binolar-18-aprel-xalqaro-yodgorliklarni-va-tarixiy-joylarni-asrash-kuni>

<https://yuz.uz/news/18-aprel--xalqaro-yodgorliklarni-va-tarixiy-joylarni-asrash-kuni>

<https://zarnews.uz/uz/post/18-aprel-xalqaro-yodgorliklarni-va-tarixiy-joylarni-asrash-kuni-1983>

[https://gov.uz/oz/pages/places\\_interest](https://gov.uz/oz/pages/places_interest)

## Mundarija:

1. Muqaddima.....	2
2. Asrlar yukini ko`tarib turgan binolar.....	3
3. O‘zbekiston epigrafika yodgorliklarining miqdori va noyobligi bo‘yicha Markaziy Osiyoda shubhasiz yetakchi mamlakat bo‘lib qolmoqda.....	5
4. Tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasi.....	9
5. Diqqatga sazovor joylar .....	10